

Seysmologiya institutiga press-tur tashkil etildi

Ma'lumki, 1966-yil 26-aprel tonggida Toshkent shahrida juda katta talofatlar bilan tarixga muhrlangan mudhish zilzila yuz bergan. Shu yilning avgust oyida hozirgi G'.O.Mavalonov nomidagi Seysmologiya instituti tashkil etilgan.

26-aprel sanasi munosabati bilan joriy yilning 25-aprel kuni Fanlar akademiyasi G'.O.Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti faoliyati, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, zamonaviy seysmologik texnologiyalar va eng so'nggi ilmiy yangiliklar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida mazkur muassasaga PRESS-TUR tashkil etildi.



Institut hududida 4 ta maxsus quduqlar ham qazilgan bo'lib, ular gidrogeoseysmologik ko'rsatkichlarni doimiy monitoring qilish uchun zarur. Quduqlarning chuqurligi 60 m, 100 m, 150 m va 250 m.

Ikki quduqda (60 m va 150 m) yer osti suvlari sathi ultratovushli suv sathi sensori va atmosfera bosimi sensori bilan universal avtomatik yozuvchi "Kedr-A2" yordamida (doimiy ravishda) o'tkaziladi. Qolgan ikkita quduqda (100 m va 250 m) kimyoviy tahlil uchun suv namunalari olinadi.

Shuningdek, Institutda 2005-yil 4-avgustda Vena shahridan XMT ma'lumotlarini uzluksiz qabul qilish uchun

xavfsiz sun'iy yo'ldosh kanalining aloqa uskunalari o'rnatilgan va 2019 yilda u butunlay modernizatsiya qilingan.

Mazkur antenna yordamida O'zbekiston va qo'shni davlatlar hududida joylashgan 50 dan ortiq mahalliy seysmik stansiyalardan, jumladan, ikkita seysmik massivdan Qozog'iston va Turkmanistondan XMT tarmog'idan olingan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va arxivlashni boshladi. Avtomatlashtirilgan qayta ishlash natijalari seysmik hodisalarning parametrlarini aniqlashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlash milliy vositalari natijalarini to'ldiradigan byulletenni tuzish uchun seysmologlar tomonidan qo'shimcha tahlil qilinadi.

Hozirgi kunda Institutda O'zbekiston hududida joylashgan seysmik stantsiyalarning ostsillografik qog'ozlarda qayd qilingan seysmogrammalar arxivi mavjud. Seysmogrammalar arxivida 200 ming donadan ortiq yozuvlar saqlanadi. Bu seysmogrammalarda nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo hududida sodir bo'lgan zilzilalarni qayd qilingan. Bu arxivdan fundamental va amaliy loyihalarni bajarishda, hududlarda sodir bo'lgan zilzilalar o'choqlari mexanizmlarini qurishda foydalaniladi. Arxivda seysmogrammalar har bir stantsiyada har oylik to'plamlar ko'rinishida saqlanadi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bevosita mazkur jarayonlar bilan yaqindan tanishdilar.



